

## VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022 yilning yanvar-iyun oylarida 563,1 mln.AQSH dollarini yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129,1 foizni, shu jumladan, eksport 141,5 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 80,6 foizni, import 421,6 mln.AQSH dollarini, o'tgan yilga nisbatan 161,9 foizni tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosini minus 280,1 mln. AQSH dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus 150,6 mln.AQSH dollari va boshqa davlatlar bilan minus -129,5 mln. AQSH dollari tashkil etdi.

### 2022 yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)

	yanvar-iyun		2021 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda
	2021 yil	2022 yil	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>436,0</b>	<b>563,1</b>	<b>129,1</b>
MDH mamlakatlari	146,6	293,8	200,3
boshqa xorij mamlakatlari	289,4	269,3	93,0
<b>Eksport</b>	<b>175,6</b>	<b>141,5</b>	<b>80,6</b>
MDH mamlakatlari	41,1	71,6	174,1
boshqa xorij mamlakatlari	134,5	69,9	52,0
<b>Import</b>	<b>260,4</b>	<b>421,6</b>	<b>161,9</b>
MDH mamlakatlari	105,5	222,2	210,5
boshqa xorij mamlakatlari	154,9	199,4	128,7
<b>Saldo</b>	<b>-84,8</b>	<b>-280,1</b>	<b>x</b>
MDH mamlakatlari	-64,4	-150,6	x
boshqa xorij mamlakatlari	-20,4	-129,5	x

Soʻngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qoʻllab – quvvatlash, import oʻrnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli oʻzgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qoʻshilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yoʻnaltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

#### 2022 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi



*Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (63,4 foiz), Yevropa (36,0 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 99,4 foizni tashkil etmoqda.*

Buxoro viloyatining 2022 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 52,2 foizi MDH davlatlariga toʻgʻri keladi qolgan, 47,8 foizi boshqa davlatlar hissasiga toʻgʻri keladi. Bu koʻrsatkichlar 2021 yilda mos ravishda 33,6 foizi MDH davlatlariga toʻgʻri kelgan boʻlsa, qolgan 66,4 foizi boshqa davlatlar hissasiga toʻgʻri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2022 yil yanvar-iyun oylariga 293,8 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan boʻlsa, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 marta koʻpayish kuzatilgan. Shundan eksport 74,1 foizga va import 2,1 marta koʻpaygan.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Qozog‘iston, Rossiya, Qirg‘iziston, Turkiya, Afg‘oniston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 66,0 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Qozog‘iston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 80,1 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Turkiya va Xitoy davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 74,1 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Eron, Turkiya, Xitoy, Germaniya, Italiya, Litva, Koreya Respublikasi, davlatlarining ulushi 36,3 foizni tashkil qildi.

#### **Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar**

(2022 yil yanvar–iyun)

(mln. AQSH dollari)

	<i><b>Eksport</b></i>	<i><b>Import</b></i>	<i><b>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</b></i>
Rossiya	35,1	74,4	19,5
Turkmaniston	4,2	115,9	21,3
Turkiya	16,2	51,0	11,9
Xitoy Xalq Respublikasi	10,4	74,1	15,0
Qozog‘iston	13,5	22,1	6,3
Eron Islom Respublikasi	11,1	16,8	5,0
Germaniya	1,4	15,7	3,0
Afg‘oniston	14,5	0,5	2,7
Qirg‘iziston	12,7	0,8	2,4
Niderlandiya	0,0	6,4	1,1
Tojikiston	2,9	3,3	1,1

Viloyatning 2022 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (19,5 foiz), Turkmaniston (21,4 foiz), Xitoy (15,1 foiz), Turkiya (12,0 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (68,0 foiz)ni tashkil qiladi.

### MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

(ming AQSH dollari)

	<i><b>Eksport</b></i>		<i><b>Import</b></i>	
	<i><b>yanvar-iyun</b></i>		<i><b>yanvar-iyun</b></i>	
	<i><b>2021 yil</b></i>	<i><b>2022 yil</b></i>	<i><b>2021 yil</b></i>	<i><b>2022 yil</b></i>
<b>Jami</b>	<b>41 109,5</b>	<b>71 580,5</b>	<b>105 543,8</b>	<b>222 219,1</b>

*shu jumladan:*

Rossiya	27 437,5	35 147,6	23 387,6	74 415,7
Qozog‘iston	3 957,1	13 545,6	15 440,7	22 112,2
Turkmaniston	3 369,4	4 218,4	59 887,1	115 880,7
Tojikiston	2 598,4	2 921,2	1 742,8	3 344,5
Qirg‘iziston	1 532,1	12 678,6	870,2	788,7
Ukraina	1 045,6	2 161,0	1 501,8	1 521,9
Ozarbayjon	663,7	554,3	246,4	2 494,3
Armaniston	103,6	17,7	-	-
Belorisiya	377,8	269,5	2 409,8	1 661,1
Moldova	24,3	66,4	57,5	-

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlar bo'yicha o'sishi kuzatilmoqda. Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 martaga oshgan va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 3,0 martaga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 38,4 foizni mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar va 32,4 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

#### 2022 yil yanvar-iyun oylarida eksport-import tarkibi


	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda</i>		<i>Hajmidagi o'zgarish, foizda</i>
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>175,6</b>	<b>141,5</b>	<b>80,6</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16,5	21,4	129,5
Ichimliklar va tamaki	0,6	0,4	69,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	94,9	14,4	15,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,1	21,4	3,0 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,2	3,7	3,1 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	46,4	69,9	150,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,1	0,0	4,2
Turli xil tayyor buyumlar	1,3	3,6	2,7 m.
Xizmatlar	7,6	5,8	76,8

	<i>Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, foizda</i>		<i>Hajmidagi o'zgarish, foizda</i>
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>
<b>Import tarkibi</b>	<b>260,5</b>	<b>421,6</b>	<b>161,9</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,0	14,1	94,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	2,5 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8,8	14,8	167,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	64,0	161,9	2,5 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	0,6	62,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	22,5	42,4	188,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	24,1	36,7	152,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	107,1	136,5	127,4
Turli xil tayyor buyumlar	17,9	14,1	78,8
Boshqa tovarlar	-	0,3	-
Xizmatlar	-	0,3	-

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 52,2 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 marta ko'p.


Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022yil yanvar- iyun oylarida 66,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 33,6 foizga etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 foizga kamaydi.

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari dinamikasi**  
(2022 yil; o'tgan yilga nisbatan, foiz)



2022 yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi.

### 2022 yil yanvar-iyun oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi 5,9 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 4,2 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,4 foizga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti


2022 yil yanvar-iyun oylarida jami 51,9 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 18,8 mln.AQSH dollariga eksport qilindi (160,9 foiz) tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2022 yil yanvar-iyun oylarida 41,0 ming tonna sabzavotlar 13,4 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 10,9 ming tonna meva va rezavorlar 5,1 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 mln.AQSH dollariga kamaygan.



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2022 yilning yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 18,8 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 60,9 foizga o'sdi).

**Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**  
*yanvar-iyun oylari (ming t.)*



**Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi**

Davlat nomi	2021 yil yanvar-iyun			2022 yil yanvar-iyun		
	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz	ming tonna	mln AQSH dollari	ulushi, foiz
Qozog'iston	7,1	2,5	21,6	35,5	9,5	60,9
Xitoy	2,9	2,3	19,8	0,6	0,5	2,8
Rossiya	9,3	5,2	44,8	3,5	3,2	22,4
Afg'oniston	0,5	0,5	4,3	0,2	0,2	1,1
Boshqa davlatlar	2,1	1,1	9,5	10,6	4,3	12,8


2022 yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 421,6 mln.AQSH dollariga (o'sish sur'ati 161,9 foiz) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (2,5 marta), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (188,1 foiz) va sanoat tovarlari (152,4 foiz) guruhlariga hisobiga to'g'ri keladi.

**Import tarkibi**  
(2022 yil yanvar-iyun)


	<i>Mln.AQSH doll.</i>	<i>2021 yil yanvar– iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
<b>Import</b>	<b>421,6</b>	<b>161,9</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,1	94,1	3,4
Ichimliklar va tamaki	0,2	2,5 m.	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,8	167,3	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	161,9	2,5 m.	38,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,6	62,6	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	42,4	188,1	10,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	36,7	152,4	8,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	136,5	127,4	32,4
Turli xil tayyor buyumlar	14,1	78,8	3,3
Xizmatlar	0,3	-	-

**2022 yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan import tarkibi, (foizda)**

**MDH davlatlari**



**Boshqa xorij davlatlari**



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar


**MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi  
(2022 yil yanvar-iyun)**

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
<b>Import</b>	<b>222,2</b>	<b>100,0</b>	<b>199,4</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,1	5,0	3,1	1,5

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12,5	5,6	2,2	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	160,0	72,0	2,0	1,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,1	0,4	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	14,6	6,6	27,8	14,0
Sanoat tovarlar	16,7	7,5	20,0	10,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	6,0	2,7	130,5	65,5
Boshqa tovarlar	1,0	0,4	13,0	6,5
Xizmatlar	-	-	0,3	0,2

2022 yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizga 60 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog'iston va Eron hamkor davlatlaridan jami import hajmi 370,0 mln.AQSH.dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 87,8 foizni tashkil qiladi.

### Mashina va uskunalar importi dinamikasi (yanvar-iyun oylari; mln.AQSH dollari)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarning o'zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o'z aksini topadi.

### Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi (umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)

